# O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

## Qobiqli fundukni sotish va uning sifatini nazorat qilish

## (DDP-03:2007, IDT)

**Rasmiy nashr**

**O‘zbekiston standartlar instituti**
**Toshkent**

STANDARTLAR INSTITUTI #JPPYWYQJW8 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

## So‘zboshi

**1** O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan **ISHLAB CHIQILDI.**

**2** O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 21-iyuldagi 26/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI.**

**3** Ushbu standart DDP-03:2007 “Concerning the marketing and commercial quality control of inshell hazelnuts” xalqaro standartiga aynan o‘xshash.

**4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI**

*Ushbu milliy standart va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarida chop etiladi.*

*Ushbu standartni talqin qilish yoki qo‘llashda tushunmovchiliklar yuzaga kelganda standartning asli yozilgan tillarining biridan foydalanish tavsiya etiladi.*

Ushbu standartni O‘zbekiston hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishlidir

STANDARTLAR INSTITUTI #JPPYWYQJW8 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

## Izoh

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati standartlari bo‘yicha ishchi guruh

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi (BMT) Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati standartlari bo‘yicha ishchi guruhining tijorat sifati standartlari xalqaro savdoni yengillashtirish, yuqori sifatli ishlab chiqarishni rag‘batlantirish, rentabellikni oshirish va iste’molchilar manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. BMT standartlaridan hukumatlar, ishlab chiqaruvchilar, savdogarlar, import qiluvchilar va eksport qiluvchilar, shuningdek boshqa xalqaro tashkilotlar foydalanadi. Ushbu standartlar yangi meva va sabzavotlar, quruq va quritilgan mahsulotlar, urug‘lik kartoshka, go‘sht, kesilgan gullar, tuxum va tuxum mahsulotlari kabi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining keng doirasini qamrab oladi. BMT qishloq xo‘jaligi standartlari bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumot olish uchun veb-saytimizga tashrif buyuring: <www.unece.org/trade/agr>.

Qobiqdagi funduk bo‘yicha mazkur yangi standart Ishchi guruhning oltmish uchinchi sessiyasida qabul qilingan ECE/TRADE/C/WP.7/2007/19 hujjatiga asoslangan.

Ushbu standartni talqin qilish yoki qo‘llashda tushunmovchiliklar yuzaga kelganda standartning asli yozilgan tillarining biridan foydalanish tavsiya etiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #JPPYWYQJW8 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

# O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

# QOBIQLI FUNDUKNI SOTISH VA UNING SIFATINI NAZORAT QILISH

# КОНТРОЛЬ ТОВАРНОГО КАЧЕСТВА ЛЕЩИННЫХ ФУНДУКА ОРЕХОВ В СКОРЛУПЕ

# CONCERNING THE MARKETING AND COMMERCIAL QUALITY CONTROL OF INSHELL HAZELNUTS

Amalga kiritish sanasi 1.08.2026

## I Mahsulot ta’rifi

Ushbu standart *Corylus avellana L.* va *Corylus maxima Mill*. turlaridan hamda ularning duragaylaridan yetishtirilgan navlarga (turlarga) mansub, o‘rama qobiq yoki tashqi po‘stloqdan xoli bo‘lgan qobiqdagi funduklarga tatbiq etiladi. Ular bevosita iste’mol qilish uchun yoki qo‘shimcha ishlov bermasdan boshqa maxsulotlar bilan aralashtirilgan xolda oziq-ovqat mahsuloti sifatida foydalanish uchun mo‘ljallangan qobiqli fundukka nisbatan tatbiq etiladi.

Ushbu standart sanoat yo‘li bilan qayta ishlash uchun mo‘ljallangan qobiqdagi funduklarga tatbiq etilmaydi.

## II Sifatga oid qoidalar

Ushbu standartning maqsadi qobiqdagi funduklar tayyorlangan va qadoqlangandan keyin, eksport nazorati bosqichida ularga qo‘yiladigan sifat talablarini belgilashdan iborat.

Biroq, agar standart eksportdan keyingi bosqichlarda qo‘llanilsa, standart talablariga rioya etilishi uchun mahsulot egasi javobgar hisoblanadi. Ushbu standartga muvofiq bo‘lmagan mahsulotlarning egasi/sotuvchisi bunday mahsulotlarni namoyish etishi yoki sotuvga taklif qilishi, yetkazib berishi yoxud boshqa har qanday tarzda bozorga chiqarishi mumkin emas.

### A. Minimal talablar[1]

Har bir nav uchun maxsus qoidalar va ruxsat etilgan chetlanishlarni hisobga olgan holda, barcha navlardagi qobiqdagi funduklar quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak:

**(a) Qobiq quyidagicha bo‘lishi kerak:**

• Butun bo‘lishi; biroq mag‘iz jismonan himoyalangan bo‘lsa, yengil yuzaki shikastlanish nuqson deb hisoblanmaydi.

• Toza bo‘lishi; amalda ko‘rinadigan har qanday begona moddalardan, shu jumladan jami qobiq yuzasining 5 foizidan ko‘prog‘iga ta’sir qiladigan yopishib qolgan tashqi po‘stloq qoldiqlaridan xoli bo‘lishi;

---

1. Atamalar va nuqsonlarning ta’riflari standart tuzilmasining III ilovasida — quruq mahsulotlar (qobiqdagi yong‘oqlar va yong‘oq mag‘izlari) hamda quritilgan mahsulotlar standartlari uchun tavsiya etilgan atamalar va nuqsonlar ta’riflarida keltirilgan: Batafsil ma’lumot uchun: http://www.unece.org/trade/agr/standard/dry/StandardLayout/StandardLayoutDDP_e.pdf.

STANDARTLAR INSTITUTI #JPPYWYQJW8 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

• Qobiqning qolgan qismi rangidan yaqqol farq qiladigan hamda jami qobiq yuzasining 25 foizidan ko‘prog‘iga ta’sir qiladigan dog‘lar, rang o‘zgarishi joylari yoki tarqalgan dog‘lardan xoli bo‘lishi;

• Yaxshi shakllangan bo‘lishi; sezilarli darajada noto‘g‘ri shakllangan bo‘lmasligi.

**(b) Mag‘iz quyidagicha bo‘lishi kerak:**

• Achib qolmagan bo‘lishi.

• Yetarlicha rivojlangan; mag‘iz qobiq bo‘shlig‘ining kamida 50 foizini to‘ldirishi kerak.

• Qurib qolmagan; yuzasining 25 foizidan ko‘prog‘iga ta’sir qiladigan qurigan yoki qattiqlashgan qismlarga ega mag‘izlarga yo‘l qo‘yilmaydi.

• Mag‘izning qolgan qismi rangidan yaqqol farq qiladigan hamda jami mag‘iz yuzasining 25 foizidan ko‘prog‘iga ta’sir qiladigan dog‘lar, rang o‘zgarishi joylari yoki tarqalgan dog‘lardan xoli bo‘lishi.

• Yaxshi shakllangan bo‘lishi kerak.

**(c) Mahsulot umumiy xolda (qobiq va mag‘iz) quyidagicha bo‘lishi kerak:**

• “B. Namlik miqdori” bo‘limiga muvofiq quritilgan bo‘lishi.

• Sifatli bo‘lishi inson iste’moli uchun yaroqsiz holga kelgan chirigan yoki buzilgan mahsulotlarga yo‘l qo‘yilmaydi.

• Oddiy ko‘z bilan ko‘rinadigan mog‘or iplaridan xoli bo‘lishi.

• Zararkunandalar yetkazgan shikastlanishlardan xoli, jumladan o‘lik hasharotlar va/yoki kanalar, ularning qoldiqlari yoki najaslari mavjud bo‘lmasligi kerak.

• Me’yordan ortiq tashqi namlikdan xoli.

• Begona hid va/yoki ta’mdan xoli.

Qobiqdagi funduklarning holati quyidagilarni ta’minlashi kerak:

• Tashish va yuklash-tushirish jarayonlariga bardosh berishi.

• Belgilangan manzilga qoniqarli holatda yetib borishi..

**B. Namlik miqdori**[2]

Qobiqdagi funduklarning namlik miqdori butun yong‘oq uchun 12,0 foizdan yoki mag‘iz uchun 7,0 foizdan oshmasligi kerak.

**C. Tasniflash**

“IV. Ruxsat etilgan chetlanishlarga oid qoidalar” bo‘limida ruxsat etilgan nuqsonlarga muvofiq, qobiqdagi funduklar quyidagi nav (sinf) larga ajratiladi:

“Extra” sinf, I sinf va II sinf

Ruxsat etilgan nuqsonlar mahsulotning sifati, saqlanish sifati va qadoqdagi taqdim etilishi bo‘yicha umumiy ko‘rinishiga ta’sir qilmasligi kerak.

---

[2] Namlik miqdori standart tuzilmasining II ilovasida — quruq mahsulotlarda namlik miqdorini aniqlash bo‘yicha keltirilgan usullardan biri bilan aniqlanadi: http://www.unece.org/trade/agr/standard/dry/StandardLayout/StandardLayoutDDP_e.pdf. Nizo yuzaga kelgan hollarda laboratoriya etalon usuli qo‘llanilishi kerak.

## III. O‘lchamlarga oid qoidalar

STANDARTLAR INSTITUTI #JPPYWYQJW8 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Qobiqdagi funduklarni o‘lchamlarga ajratish “Extra” sinf va I sinf uchun majburiy, II sinf uchun ixtiyoriydir. O‘lcham qobiqning ekvatorial kesimidagi eng katta diametri bo‘yicha aniqlanadi.

Eng kichik o‘lcham diametri 12 mm ni tashkil etadi.

O‘lcham bo‘yicha bir xillik quyidagilar orqali ifodalanadi:

• Eng kichik o‘lcham va eng katta o‘lcham bilan belgilanadigan o‘lcham diapazoni, bunda farq 3 mm dan oshmasligi kerak; yoki

• Diametr bo‘yicha eng kichik o‘lcham sifatida belgilanadigan elakdan o‘tkazish.

## IV. Ruxsat etilgan chetlanishlarga oid qoidalar

Ko‘rsatilgan navning eng kam talablariga javob bermaydigan mahsulotlar uchun har bir to‘pda sifat va o‘lcham bo‘yicha ruxsat etilgan chetlanishlarga yo‘l qo‘yiladi.

### A. Sifat bo‘yicha ruxsat etilgan chetlanishlar

| Ruxsat etilgan nuqsonlar | Ruxsat etilgan chetlanishlar — nuqsonli qobiqdagi funduklarning soni yoki og‘irligi bo‘yicha foizi (qobiqdagi funduklarning umumiy og‘irligi asosida) | | |
|---|---|---|---|
| | “Extra” sinf | I sinf | II sinf |
| **(a) Eng kam talablarga javob bermaydigan qobiq va mag‘izlar uchun ruxsat etilgan chetlanishlar Shundan quyidagilardan ko‘p bo‘lmasligi kerak:** | 10 | 15 | 20 |
| - Yetarli darajada rivojlanmagan yoki bo‘sh qobiqlar (soni bo‘yicha) | 6 | 9 | 12 |
| - Mog‘orlagan, achigan, zararkunandalar tomonidan shikastlangan, chirigan yoki buzilgan mahsulot | 3 | 5 | 6 |
| - Tirik zararkunandalar | 0 | 0 | 0 |
| **(b) O‘lcham bo‘yicha ruxsat etilgan chetlanishlar** | | | |
| - O‘lchamlarga ajratish qoidalariga va ko‘rsatilgan o‘lchamga muvofiq bo‘lmagan mahsulotlar uchun | 10 | 10 | 10 |
| **(c) Boshqa nuqsonlar bo‘yicha ruxsat etilgan chetlanishlar** | | | |
| - Begona moddalar, alohida qobiqlar, qobiq bo‘laklari, tashqi po‘stloq parchalari, chang | 1 | 1 | 2 |
| - Ko‘rsatilganidan boshqa navlar yoki tovar turlariga mansub qobiqdagi funduklar | 10 | 10 | 10 |

*Izoh. Har bir navda ruxsat etilgan nuqsonlar bo‘yicha umumiy chetlanishlar, boshqa nuqsonlar mavjud bo‘lmagan taqdirda, faqat qobiqqa ta’sir qiluvchi nuqsonlar uchun qo‘llanilishi mumkin.*

## V. Taqdim etishga oid qoidalar

STANDARTLAR INSTITUTI #JPPYWYQJW8 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

### A. Bir xillik

Har bir qadoqning tarkibi bir xil bo‘lishi va faqat bir xil kelib chiqishga, sifatga, hosil yiliga, o‘lchamga (agar o‘lcham belgilangan bo‘lsa) hamda nav yoki tovar turiga (agar ko‘rsatilgan bo‘lsa) mansub qobiqdagi funduklardan iborat bo‘lishi lozim.

Qadoq tarkibining ko‘rinib turgan qismi butun tarkibni ifodalovchi bo‘lishi kerak.

### B. Qadoqlash

Qobiqdagi funduklar mahsulotni to‘g‘ri himoya qiladigan tarzda qadoqlanishi lozim. Qadoq ichida ishlatiladigan materiallar toza bo‘lishi va mahsulotga tashqi yoki ichki shikast yetkazmaslik darajasida sifatli bo‘lishi kerak. Materiallardan, xususan savdo tavsiflari tushirilgan qog‘oz yoki tamg‘alardan foydalanishga ruxsat etiladi, biroq bosma yozuv yoki yorliq toksik bo‘lmagan siyoh yoki yelim bilan bajarilgan bo‘lishi kerak.

Qadoqlar “IV. Ruxsat etilgan chetlanishlarga oid qoidalar” bo‘limidagi chetlanishlar jadvaliga muvofiq barcha begona moddalardan xoli bo‘lishi lozim.

### C. Taqdim etish shakli

Qobiqdagi funduklar qoplarda yoki mustahkam idishlarda taqdim etilishi kerak. Har bir qadoq ichidagi barcha savdo qadoqlari bir xil og‘irlikda bo‘lishi lozim.

<Qobiq tozalashga yoki unga ruxsat etilgan vositalar bilan tozalanishi/ishlov berilishi mumkin, bunda ular mag‘iz sifatiga ta’sir qilmasligi kerak.>

## VI. Tamg‘alashga oid qoidalar

Har bir qadoqda[3] quyidagi ma’lumotlar bir tomonda guruhlangan holda, o‘qilishi oson, o‘chmas yozuvda va tashqaridan ko‘rinadigan tarzda keltirilishi lozim:

### A. Identifikatsiya

Qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi: to‘liq nomi va jismoniy manzili (masalan, ko‘cha/shahar/hudud/pochta indeksi va, agar kelib chiqish mamlakatidan farq qilsa, mamlakat nomi) yoki milliy vakolatli organ tomonidan rasmiy tan olingan kod belgisi[4].

---

[3] Iste’molchiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotish uchun oldindan qadoqlangan mahsulot qadoq birliklariga ushbu tamg‘alash qoidalari tatbiq etilmaydi, biroq ular milliy talablarga muvofiq bo‘lishi lozim. Shunga qaramay, ko‘rsatilgan tamg‘alash ma’lumotlari har qanday holatda bunday qadoq birliklarini o‘z ichiga olgan transport qadoqlarida aks ettirilishi kerak.

[4] Bir qator mamlakatlarning milliy qonunchiligi nomi va manzilini aniq ko‘rsatishni talab qiladi. Biroq kod belgisi qo‘llanilgan hollarda, kod belgisi bilan bevosita bog‘liq holda “qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi” yozuvi (yoki unga teng qisqartmalar) ko‘rsatilishi kerak, shuningdek, agar tan oluvchi mamlakat kelib chiqish mamlakati bo‘lmasa, kod belgisi oldidan tan oluvchi mamlakatning ISO 3166 alpha mamlakat kodi keltirilishi lozim.

### B. Mahsulotning xususiyati

STANDARTLAR INSTITUTI #JPPYWYQJW8 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

- “Qobiqdagi funduklar” yoki, agar mahsulot tashqaridan ko‘rinib tursa, “Funduklar”;
- Nav va/yoki tovar turi nomi (ixtiyoriy).

**C. Mahsulotning kelib chiqishi**

- Kelib chiqqan mamlakat va, ixtiyoriy ravishda, yetishtirilgan hudud yoki milliy, mintaqaviy yoxud mahalliy joy nomi.

**D. Tijorat tavsifnomalari**

- Nav
- O‘lcham (agar o‘lcham bo‘yicha tasniflangan bo‘lsa); quyidagicha ifodalanadi
- Minimal va maksimal diametrlar orqali; yoki
- Minimal diametrdan keyin “va undan yuqori” yoki “va +” so‘zlari bilan;
- Hosil yili (ixtiyoriy);
- “Eng yaxshi iste’mol muddati” so‘zlaridan keyin sana ko‘rsatiladi (ixtiyoriy).

**E. Rasmiy nazorat belgisi (ixtiyoriy)**

1970-yilda nashr etilgan.
Oxirgi marta 2007-yilda qayta ko‘rib chiqilgan.

Meva va sabzavotlar uchun xalqaro standartlarni qo‘llash bo‘yicha OECD sxemasi ushbu standartni qo‘llashga oid tushuntiruvchi rasmli risolani nashr etgan. Nashrni OECD kitob do‘konidan quyidagi manzil orqali olish mumkin: www.oecdbookshop.org

STANDARTLAR INSTITUTI #JPPYWYQJW8 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI